



## Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


2025-yil yanvar-avgust oylari uchun

- I. Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni
- II. Samarqand viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

### I. Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni

2025-yilning 1-sentabr holatiga ko'ra viloyatimizda 4 828 ta sanoat korxonalarini faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalarini soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush 1 164 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 24,1 % i) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 743 tasi (15,4 %) boshqa nometal mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 379 tasi (7,8 %) kiyim ishlab chiqarishga, 456 tasi (9,4 %) mashina va uskunalardan tashqari tayyor metal buyumlar ishlab chiqarishga va 345 tasi (7,1 %) mebel ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni  
1-avgust holatiga ko'ra





## II. Samarqand viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari tumanlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025-yilning yanvar-avgust oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 34 447,2 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 107,3 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>34 447,2</b>	<b>107,3</b>
Samarqand sh	12 268,9	107,1
Kattaqo'rg'on sh	655,5	107,3
<i>tumanlar:</i>		
Oqdaryo	673,8	109,5
Bulung'ur	843,2	104,2
Jomboy	3 084,0	108,0
Ishtixon	664,0	103,1
Kattaqo'rg'on	1 510,6	110,3
Qo'shrabot	171,7	112,1
Narpay	718,6	106,5
Payariq	549,8	101,2
Pastdarg'om	1 073,0	113,3
Paxtachi	462,1	79,2
Samarqand	2 078,8	107,8
Nurobod	444,4	109,8
Urgut	2 834,1	105,4
Toyloq	1 946,5	108,1

### Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalarini joylashganligi hisobiga Samarqand shahrida (20 508,4 ming so'm), Jomboy tumanida (15 807,4 ming so'm), Toyloq tumanida (8 559,8 ming so'm), Samarqand tumanida (7 426,5 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (7 980,2 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 105,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, Pastdarg'om tumanida (110,8 %)



Kattaqo'rg'on tumanida (108,1 %), Qo'shrabot tumanida (110,1 %), qayd etilib viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi  
yanvar-avgust oylarida



### Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2025-yilning yanvar-avgust oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 33 127,7 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (96,2 %)ni tashkil etgan holda Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 218,3 mlrd so'm (0,6 %), Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 875,7 mlrd so'm (2,5 %) hamda Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 225,5 mlrd so'm (0,7 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi,  
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi  
2025-yilning yanvar-avgust oylarida



### III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2025-yilning yanvar-avgust oylarida viloyatda 292 856,9 tonna chaqiq tosh (2024-yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan 2,6 % ga kamaygan), 20 528,2 tonna ip kalava (0,5 % ga ko'paygan), 15 208,0 ming litr pivo mahsulotlari (7,8 % ga kamaygan) hamda 21 426,9 ming metr kvadrat gilam va gilam mahsulotlari (12,0 % ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-avgust*	2024-yil yanvar-avgust*	2025-yil yanvar-avgust
Avtobus, <i>dona</i>	522	518	365
Yuk avtomobillari, <i>dona</i>	1 746	2 050	2 558
Portlandsement, <i>ming tonna</i>	19,4	1 584,0	1 787,2
Konyak spirti, <i>ming litr</i>	201,2	55,0	55,5
Paxta tolasi, <i>ming tonna</i>	31,1	30,9	20,5
Gilam va gilam mahsulotlari, <i>ming m. kv.</i>	19 773,9	19 129,8	21 426,9

O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna	28,2	34,6	53,3
Kunjara va qattiq chiqindilar, ming tonna	61,1	66,8	88,8

*\*2023-2024-yillarning yanvar-avgust oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

**Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari**

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 43,4 % (2024-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,8 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 4,3 % (2024-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 122,5 %)ni tashkil etdi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi**

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,6 % ni (2024-yilning yanvar-avgust oylarida 0,5 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 13,6 % (14,0 %), o'rta-quyi texnologiyali – 26,0 % (21,2 %), quyi texnologiyali 59,9 % (60,8 %)ni tashkil etgan.





### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2025-yilning yanvar-avgust oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektr energiya ishlab chiqarish 125,8 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-avgust*	2024-yil yanvar-avgust*	2025-yil yanvar-avgust
Jami ishlab chiqarilgan elektr energiya, mln kv.t.s.	131,7	153,9	192,9
<i>shundan:</i>			
yirik korxonalar tomonidan (hisobot ma'lumotlariga asosan)	131,7	153,9	192,9
kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan (kuzatuv ma'lumotlariga asosan)	-	-	-
Issiqlik energiyasi, ming gkal	11,8	0,4	-

### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv qovurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 12,4 % ga ko'payish, Kanalizatsiya loylarini tozalash bo'yicha xizmatlarda 20,5 % ga ko'payish kuzatildi. Shuningdek, plastmassa chiqindilari yig'ish bo'yicha xizmatlarda 15,2 % ga ko'payish kuzatildi.


Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-avgust*	2024-yil yanvar-avgust*	2025-yil yanvar-avgust
Suvga ishlov berish va suv qovurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar mln so'm	75 592,9	92 429,4	103 848,0
Kanalizatsiya loylarini tozalash bo'yicha xizmatlar, mln so'm	34 940,1	44 450,2	53 555,8

Xavfli bo'lmagan chiqindilarni yig'ish xizmatlari, mln so'm	19 162,4	36 934,0	48 922,7
Plastmassa chiqindilari, tonna	1 983,7	2 254,3	2 596,6

*\*2023-2024-yillarning yanvar-avgust oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

#### **IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi**

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 17 199,6 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 49,9 % ni tashkil etdi. 2024-yilning yanvar-avgust oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 48,1 % ni tashkil etgan.



#### **V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar**

**Sanoat bu** – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

##### **Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)**

**Sanoat ishlab chiqarishi hajmi** to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a)



sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik sub'ektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuvi ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuvi materiallari.

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

### **Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif**

**Fizik hajm indeksini hisoblash** deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

**Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi** asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

**B** - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

**C** - Ishlab chiqarish sanoati

**D** - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

**E** - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

### **Metama'lumot uchun havola:**

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erfbgheheh5446456>

---

**Tayyorlash uchun mas'ul:**

Sanoat va energetika  
statistikasi bo'limi

**Ijrochi:**

T. Alimov  
66 235-06-80 (3012)

**Manzil:**

Samarqand sh  
U.Tursunov-82 uy

---